



## INVESTITSION JARAYONLARDA INTERAKTIV GEOAXBOROT XARITALARINI YARATISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBASI

**Fazliddinova Zulxumor Akramjon qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot univristeti huzuridagi  
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning  
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi*

*ORCID: 0009-0008-9940-1731*

*[zulxumor.fazliddinova@gmail.com](mailto:zulxumor.fazliddinova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Investitsion jarayonlarda interaktiv geoaxborot xaritalarini yaratish xorijiy tajribada samarali qo'llanilib, sarmoyadorlar uchun muhim ma'lumotlarni ochiq taqdim etishga xizmat qiladi. Misrning sanoat investitsiyalari xaritasi bu borada yaxshi namuna bo'lib, sarmoyadorlarga infratuzilma, resurslar va sanoat zonalari haqida real vaqt rejimida ma'lumot beradi. Bu usul investitsiya qarorlarini samarali qabul qilish va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. O'zbekiston ham bu yondashuvni tatbiq etishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *interaktiv, geoaxborot, investitsiya, kartografik, veb-sayt, ko'chmas mulk, EIZ, investr, sanoat zona.*

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОЗДАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ КАРТ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЦЕССАХ

**Фазлиддинова Зулхумор Акрамжон кизи**

*НИЦ «Научные основы и проблемы  
развития экономики Узбекистана» при  
Ташкетском государственном экономическом университете*

**Аннотация.** *Создание интерактивных геоинформационных карт в инвестиционных процессах эффективно используется в зарубежной практике и служит для открытого предоставления важной информации инвесторам. Примером этого является карта промышленных инвестиций Египта, которая в реальном времени предоставляет инвесторам данные о инфраструктуре, ресурсах и промышленных зонах. Этот подход способствует эффективному принятию инвестиционных решений и поддержке экономического развития. Узбекистан также может применить данный метод.*

**Ключевые слова:** *интерактивный, геоинформационный, инвестиции, картографический, веб-сайт, недвижимость, ОЭЗ, инвестор, промышленная зона.*

## FOREIGN EXPERIENCE IN CREATING INTERACTIVE GEOINFORMATION MAPS IN INVESTMENT PROCESSES

**Fazliddinova Zulhumor Akramjon kizi**

*Research center «Scientific bases and issues of economic development of Uzbekistan»  
under the Tashkent State University of Economics*

**Annotation.** *The creation of interactive geoinformation maps in investment processes has been effectively utilized in foreign practices, serving to provide open access to important information for investors. Egypt's industrial investment map is a good example, offering real-time data on infrastructure, resources, and industrial zones to investors. This approach helps in making efficient investment decisions and supports economic growth. Uzbekistan can also adopt this method to enhance its attractiveness for investment.*

**Keywords:** *interactive, geoinformation, investment, cartographic, website, real estate, SEZ, investor, industrial zone.*

### **Kirish.**

Hozirgi globallashuv sharoitida investitsiyalarni jalb qilish har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi ham investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy taraqqiyotga erishish maqsadida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yechimlarni joriy etish yo'lida muhim qadamlar qo'yimoqda. Shu jumladan, investitsion jarayonlarni yanada samarali va shaffof boshqarish uchun interaktiv geoaxborot xaritalarini yaratish bo'yicha xorijiy tajriba va texnologiyalarni o'zlashtirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023 yilda 14-yanvar oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16-sonli qarori mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun keng ko'lamli islohotlarni boshlanishiga turtki berdi. Ushbu qarorda hududiy va tarmoqlar bo'yicha investitsiya imkoniyatlarini yanada oshkor qilish va ularga oson kirishni ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi mexanizmlar yaratish zarurligi ta'kidlangan.

Interaktiv geoaxborot xaritalarining joriy etilishi investorlarga O'zbekistonning turli hududlaridagi infratuzilma, tabiiy resurslar va iqtisodiy imkoniyatlar to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, bu tizim davlat va xususiy sektor o'rtasida muloqotni yaxshilaydi hamda investitsion loyihalarni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasiga asoslanib, O'zbekistonda ham geoaxborot tizimlari investitsiya jarayonlarida keng qo'llanila boshladi, bu esa mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro investorlarga qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi. Shu qatorda, Misr davlatining milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga bo'lgan intilishi doirasida sanoat sektorini rivojlantirish va davlat hamda turli sohalardagi investorlar o'rtasida strategik hamkorliklarni barpo etish orqali sanoat investitsiyalari xaritasi ishga tushirildi va bu loyihani chuqur o'rganish O'zbekiston investitsiya, savdo va sanoatini rivojlantirishda andoza sifatida qo'llash mumkin bo'ladi. Uning maqsadi Misr sanoatini rivojlantirish va Misrni Yaqin Sharq hamda Afrikaning yetakchi sanoat davlatiga aylantirishdir. Bu ichki sanoatlashtirishni kuchaytirish, qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tarmoqlarni kengaytirish, yuqori texnologiyali komponentlarni ilgari surish va oxir-oqibatda Misr hamda xorijiy investitsiyalar uchun jozibador muhit yaratish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu qarash asosida investitsiya xaritasi investorlarning mavjud raqobatbardosh omillar va salohiyat haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Bu sanoat maqsadlari uchun yerlarni ishlab chiqish va ularni investorlar uchun

Misrning onlayn investitsiya veb-sayti orqali taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu sayt yer ajratish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi va sanoat rivojlanish boshqarmasi bilan elektron aloqa qilish imkoniyatini taqdim etib, sanoat zonalarini yerlaridan foydalanish va ularni o'zlashtirishni tartibga soluvchi shartlar bilan tanishishni yengillashtiradi.

Investitsiya xaritasi barcha tarmoqlar, shu jumladan sanoat sektori bo'yicha investorlar uchun teng imkoniyatlarni targ'ib qilish va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Investitsion jarayonlarda interaktiv geoaxborot xaritalarini yaratish xorijiy tajribada keng qo'llanilmoqda va bu jarayon investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishni sezilarli darajada samaraliroq qilishga yordam beradi. Xorijiy mamlakatlarda geoaxborot texnologiyalari investitsion imkoniyatlarni vizualizatsiya qilish, hududiy xususiyatlar va infratuzilma resurslarini aniqlash, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy ma'lumotlarga tezkor kirish imkonini beradi. Bunday xaritalar yordamida investorlarga hududning iqtisodiy va huquqiy sharoitlari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etilib, investitsion loyihalarni aniqlash va tahlil qilish osonlashadi. Natijada, investitsion qarorlar tez va aniq qabul qilinib, hududning investitsion jozibadorligi oshiriladi. Interaktiv geoaxborot xaritalarini yaratish qarorlar qabul qilishda yordam beradigan qulay, vizual ma'lumotlarni taqdim etish orqali investitsiya jarayonlarini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu xaritalar turli xil ma'lumotlar to'plamlarini birlashtiradi, bu potentsial investorlarga imkoniyatlarni samarali baholash imkonini beradi.

Interaktiv geoaxborot xaritalari investitsiya jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi, chunki ular turli ma'lumotlarni bir joyga jamlab, foydalanuvchilarga qulay va dinamik fazoviy ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu xaritalar, xususan, investorlar va mahalliy hukumatlar uchun strategik qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular investitsiya imkoniyatlarini samarali tarzda ko'rib chiqish imkonini beradi (Hampton va boshq., 2018).

Interaktiv xaritalar foydalanuvchilarga investitsiya aktivlari bilan bog'liq geografik ma'lumotlarni taqdim etib, potentsial joylashuv va bozor sharoitlarini yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi. Bunda investitsiya jarayonida zarur bo'lgan turli ma'lumotlar to'plamlarini birlashtirish orqali ularga qulay navigatsiyani ta'minlaydi (Takahashi & Imig, 2018). Katta ma'lumotlar to'plamlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan ushbu xaritalar foydalanuvchilar uchun investitsiya loyihalarini interaktiv ravishda o'rganish va ma'lumotlarni klasterlash imkonini beradi, bu esa tezkor va samarali qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) interaktiv xaritalar uchun asosiy texnologiya sifatida xizmat qiladi va turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan investorlar va mahalliy hukumatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi (Kukhar va boshq., 2022). WebGIS platformalari esa, investitsion jarayonlarni masofadan turib baholash imkoniyatini kengaytirib, mintaqaviy imkoniyatlarni osonroq aniqlash va investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini soddalashtiradi (Sunaryo va boshq., 2022). Interaktiv xaritalarni ishlab chiqish ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va vizualizatsiyani o'z ichiga olgan tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi. Python va Google Maps kabi vositalardan foydalangan holda, ushbu xaritalar foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirish uchun dinamik ma'lumotlarni samarali ko'rsatishi mumkin (Lupei va boshq., 2022) ("Haqiqiy davlat va jamoat yo'nalishlarini amalga oshirish doirasida interaktiv xaritani ishlab chiqish", 2022).

Shuningdek, mahalliy hukumatlar ushbu interaktiv xaritalardan investitsiya loyihalarini boshqarish va ilgari surishda keng foydalanilmoqda. Ular investitsiya jarayonida shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (Stepniak, 2015). Biroq, interaktiv geoaxborot xaritalari juda samarali vosita bo'lsa-da, ma'lumotlarning aniqligi va foydalanuvchi interfeysining murakkabligi kabi ba'zi muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish orqali investitsiya jarayonlari yanada samarali bo'lishi mumkin.

Shu sababli, interaktiv xaritalar kelajakda investitsiya jarayonlarida yanada muhim rol o'ynashi va ushbu vosita yordamida rejalashtirishning yangi darajaga ko'tarilishi kutilmoqda.


Ushbu izlanishlari asosida bunday texnologiyalar investorlar uchun yanada shaffof va qulay platformalar yaratishga yordam berishini aniqlashgan

### Tadiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, statistik guruhlash, interaktiv-kartografik iqtisodiy-statistik va ekspert baholash, qiyosiy tahlil, to'g'ridan-to'g'ri kuzatish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish, taqqoslash, so'roq qilish kabi usullardan foydalaniladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Misr investitsiya xaritasi platformasi investitsiyalar uchun ko'proq afzalliklar taqdim etish va investitsiya xaritasining mazmunini yaxshilash maqsadida ishga tushirildi. Yagona geografik ma'lumotlar bazasi shakli yaratilib, xarita Misrda mavjud bo'lgan barcha investitsiya imkoniyatlarini bir joyda jamlashga va barcha investitsiya qonunlari, reklama nashrlari va geografik joylashuvlardan tortib, afzalliklar hamda sanoat, savdo va xizmat ko'rsatish sektorlariga oid ma'lumotlarga qadar barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kutubxonani o'zida jamlashga chaqirilgan. Oxirida esa sanoat zonalarini investitsiya xaritasi veb-saytida savdo orqali amalga oshiriladigan investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan litsenziyalar bilan ta'minlaydi.




1-rasm. Misrning investitsion platformasi<sup>12</sup>

Investorlar uchun yer maydoni, faoliyat turi, infratuzilma, metr uchun narx, balandlik cheklavlari, investitsiya xarajatlari va asosiy xizmatlar kabi zarur ma'lumotlar, shuningdek, hokimiyat, shifoxonalar, aeroportlar, portlar, asosiy yo'l tarmoqlari va boshqa zarur ko'rsatkichlar bo'yicha eng qulay va mos muhitni ta'minlash maqsadida yangilangan Misr investitsiya xaritasi yangi imkoniyatlar va mexanizmlar bilan ishga tushirildi. Bu investorlar uchun takliflarni elektron tarzda taqdim etish imkonini beradi.

<sup>12</sup> <https://www.investinegypt.gov.eg/english/pages/default.aspx?unопределенный>





## 2-rasm. Misrning investitsiya loyihalarini hududlar bo'yicha joylashuvi<sup>13</sup>

Yangilangan investitsiya xaritasining asosiy xususiyatlari:

- Xaritaning yangilangan versiyasi investorlar uchun interaktiv platforma bo'lib, ularga mos investitsiya imkoniyatlarini topishni osonlashtiradi.

- Xaritaning elektron portali davlat organlariga investitsiya imkoniyatlarini kiritish va o'zgartirish, shuningdek, investorlar bilan oson aloqa qilish uchun interaktiv imkoniyatlarni qo'shish imkonini beradi.

- Yangi veb-sayt Misrning eng muhim savdo kelishuvlarini ham o'z ichiga oladi va investorlar takliflarni elektron tarzda taqdim etishi, ularning bajarilishini kuzatishi, qiziqqan sektorlar va viloyatlardagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari, shuningdek, yangi imkoniyatlar haqida elektron xat olishlari mumkin.

- Xaritadagi barcha imkoniyatlar yangilanadi, jumladan joylashuvi, maydoni, qurilish shartlari, narxlar va investitsiya faoliyati, bu ularning tabiati va amalga oshirish uslubiga mos keladi.

- Bundan tashqari, investorlar yangi investitsiya imkoniyatlari haqida elektron xabarlarni olishadi.

- Hozirda Misr investitsiya xaritasi 2551 imkoniyat, 24 tarmoq tadqiqoti va 57 ko'rsatkichli texnik-iqtisodiy asosni o'z ichiga oladi.

- 27 viloyat hokimiyatlari bilan yaqin hamkorlikda yaratilgan investitsiya xaritasi barcha hajmdagi loyihalar haqida ma'lumot beradi, loyihalarning asosiy inshootlar (transport aloqalari, maktablar va shifoxonalar) yaqinligi qay darajada ekanini ko'rsatadi va investorlar hamda davlat amaldorlari o'zaro aloqa o'rnatishi uchun platformani taqdim etadi. Shuningdek, xarita mavjud rivojlanish loyihalarining joylashuvini ko'rsatib, investorlar uchun oldindan reja tuzish imkonini beradi.

Asosiy maqsadlar:

1. Davlatning barcha tegishli organlari bilan hamkorlikda investitsiya rejasi loyhasini ishlab chiqish, investitsiya turlari va rejimlarini, geografik hududlar va investitsiya sohalarini, davlat yoki boshqa davlat yuridik shaxslariga tegishli bo'lgan, investitsiyalar uchun tayyor

<sup>13</sup> <https://www.investinegypt.gov.eg/English/Pages/exploreMap.aspx?cat=5>

bo'lgan ko'chmas mulklarni hamda investitsiya rejimi turiga qarab mulkni boshqarish tizimi va usulini aniqlash.

2. Davlat investitsiya rejasi doirasida milliy va xorijiy kapitalni turli sohalarga investitsiya kiritishga jalb qilish va rag'batlantiruvchi rejalar, tadqiqotlar va qoidalarni ishlab chiqish, shuningdek, bu uchun zarur bo'lgan jarayonlarni amalga oshirish.

3. Misr Arab Respublikasining investitsiya xaritasini tayyorlash, shunda xaritaning veb-sayti Misr iqtisodi va investitsiya imkoniyatlari bo'yicha investorlarni qiziqtirgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bunda barcha tumanlar, viloyatlar, vazirliklar va iqtisodiy subyektlar tomonidan taqdim etilgan investitsiya imkoniyatlarini doimiy yangilab borish va investorlar savollariga xarita orqali javob berish.

4. Investor ushbu qonun bilan nazarda tutilgan imtiyozlar va kafolatlardan foydalanishi uchun zarur bo'lgan sertifikatlarni taqdim etish.

5. Investitsiyalarni ilgari surish rejasini ishlab chiqish va ushbu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan barcha choralarning qabul qilinishini ta'minlash, shuningdek, bu rejaning milliy va xalqaro miqyosda e'lon qilinishini ta'minlash.

6. Investitsion faoliyat bilan bog'liq barcha rasmiy shakllarni standartlashtirish, tegishli organlar bilan kelishilgan holda ularni internet va boshqa usullar orqali taqdim etish.

7. Milliy iqtisod manfaatlariga xizmat qilish maqsadida erkin va investitsiya zonalarini boshqarish tizimini ishlab chiqish.

8. Investitsiyalar bilan bog'liq qonunlarni o'rganish va ushbu qonunlarga zarur takliflar kiritish, shuningdek, qonunlarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish.

9. Investitsion faoliyat bilan bog'liq konferentsiyalar, seminarlar, treninglar, mahorat darslari va ko'rgazmalar o'tkazish, shuningdek, bunday tadbirlarni mamlakat ichida va xorijda tashkil etish.

10. Investitsiyalarni rivojlantirish va ilgari surish bilan shug'ullanadigan xalqaro va xorijiy institutlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

11. Ushbu qonun va boshqa qonunlarning ijroi qoidalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq korxonalarining faoliyatini nazorat qilish va tekshirish.

Misrning interaktiv investitsiya imkoniyatlari xaritasi, odatda, investorlar va biznes uchun mamlakatning turli iqtisodiy zonalarini, infratuzilma loyihalari, resurslar va investitsiyalar uchun mavjud bo'lgan imtiyozlarni o'rganishga imkon beruvchi platforma yoki veb-resursdir. Misr hukumati erkin iqtisodiy zonalar va maxsus investitsiya loyihalari orqali xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilmoqda.

Bunday xaritaning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Erkin iqtisodiy zonalar: Investorlar uchun maxsus soliq va huquqiy imtiyozlar bilan ta'minlangan hududlar.

2. Sanoat va texnologiya parklari: Ishlab chiqarish va texnologiya kompaniyalari jamlangan joylar haqidagi ma'lumotlar.


3. Infratuzilma loyihalari: Yo'llar, portlar, aeroportlar va energetika ob'ektlarini qurish kabi yirik loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari.

4. Turizm: Turizm, mehmonxona biznesi va bog'liq infratuzilmani rivojlantirish uchun istiqbolli hududlar haqida ma'lumotlar.

5. Energetika loyihalari: Qayta tiklanadigan energiya (quyosh va shamol elektr stansiyalari) va an'anaviy energetika sohasidagi imkoniyatlar.

6. Qishloq xo'jaligi: Investitsiyalar uchun mavjud yerlar va qishloq xo'jaligi loyihalari bo'yicha ma'lumotlar.

Misrning interaktiv investitsiya imkoniyatlari xaritasi investorlar uchun muhim ma'lumotlarga oson kirishni ta'minlaydigan innovatsion vosita hisoblanadi. Misr tomonidan taqdim etilgan bu kabi xaritalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, ma'lumotlarning vizual ko'rinishda taqdim etilishi qaror qabul qilish jarayonining samaradorligini oshiradi.



**3-rasm. Misr EIZlarning hududlar bo'yicha joylashuvi<sup>14</sup>**

Shuningdek, bu kabi xaritalarning funksional imkoniyatlari va ulardan olingan g'oyalar boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Bu kabi vositalar O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish jarayonini soddalashtirishi va investorlar uchun ma'lumotlarga qulaylik bilan kirish imkonini yaratishi mumkin.

1. Interaktiv vositalar orqali izlashni osonlashtirish:

Sohalar bo'yich: Investor o'ziga qiziq bo'lgan iqtisodiyot sektorini tanlashi mumkin, bu energetika, turizm, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, ko'chmas mulk va boshqa sohalar bo'lishi mumkin. Bu aniq bir sohada loyihalarni topishni soddalashtiradi.

- Geografik hududlar bo'yicha filtrlash: Investor mamlakatning ma'lum bir qismida yoki erkin iqtisodiy zonalarda (EIZ) investitsiya qilish imkoniyatlarini tanlashi mumkin. Bu investorlarning hududning infratuzilma va huquqiy shart-sharoitlarini yaxshiroq baholashiga yordam beradi.

- Loyihalarga tezkor kirish: Xaritada har bir loyiha batafsil ma'lumot bilan taqdim etilgan bo'ladi — bu ishlab chiqarish obyekti, turizm loyihasi yoki infratuzilma tashabbusi bo'lishidan qat'i nazar. Investor loyihaning hozirgi holati, moliyaviy ko'rsatkichlari va kelajakdagi rejalar haqida darhol ma'lumot olishi mumkin.

2. Har bir loyiha bo'yicha batafsil ma'lumot:

- Huquqiy ma'lumotlar: Xarita turli hududlar va zonalarga tegishli muhim huquqiy ma'lumotlarga kirishni taqdim etadi. Investor qaysi iqtisodiy zonada qanday imtiyozlar, soliq stavkalari va huquqiy shartlar amal qilishini darhol bilib olishi mumkin.

- Investorlar uchun takliflar haqidagi ma'lumotlar: Loyiha haqida asosiy ma'lumotlardan tashqari, investor yerga kirish imkoniyatlari, ijara imtiyozlari, biznesni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarning soddalashtirilgan shakllari, subsidiya va hukumat dasturlariga kirish imkoniyatlari kabi takliflar haqida bilib olishi mumkin.

Barcha ma'lumotlar ingliz tilida ham mavjud bo'lib, bu xaritani xalqaro investorlar uchun qulay qiladi.

3. Erkin iqtisodiy zonalar va investorlar uchun imtiyozlar: O'zbekistonda har bir erkin iqtisodiy zona (EIZ) o'ziga xos sharoitlarga ega — soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va

<sup>14</sup> <https://www.investinegypt.gov.eg/English/Pages/exploreMap.aspx?cat=12>



soddalashtirilgan huquqiy tartibotlar. Bunday zonalar haqida ma'lumotni interaktiv xaritada taqdim etish, investorlarning o'z biznesi uchun eng qulay zonalarini tanlashiga imkon beradi.

- Sohalar va loyihalar turlari bo'yicha filtrlash: Bu investorlarni o'zlari qiziqqan sohalarda, masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, turizm yoki IT sohalarida investitsiya loyihalarini tezroq topish imkonini beradi.

- Davlat dasturlari haqidagi ma'lumotlarning integratsiyasi: Interaktiv xaritaga davlatning qo'llab-quvvatlash dasturlari haqidagi ma'lumotlarni qo'shish mumkin. Bu investorlar uchun mavjud bo'lgan barcha yordam vositalari, masalan, soliq ta'tillari, subsidiyalar yoki boshqa yordam shakllari haqida to'liq ma'lumot olish imkonini yaratadi.

Bu kabi interaktiv vositalar O'zbekistonga investitsiya jalb qilishni sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin, shu bilan birga investorlar uchun aniq va qulay ma'lumot taqdim etish orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

#### 4. Qo'shimcha funksiyalar orqali hamkorlikni yaxshilash:

- Interaktiv grafiklar va tahlillar: Vizual vositalar investorlar uchun real vaqtda ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, so'nggi yillarda ma'lum bir sektorning o'sishi yoki ayni paytda bir sohada kuzatilayotgan tendentsiyalar haqida ma'lumot olish.

- Hududlar va loyihalarni taqqoslash: Bir nechta loyihalar yoki erkin iqtisodiy zonalarini (EIZ) asosiy ko'rsatkichlar asosida taqqoslash imkoniyati, masalan, soliq imtiyozlari, mavjud infratuzilma, startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun sharoitlar.

- Loyiha vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa: Investorlar uchun zona yoki loyiha vakillari bilan o'rnatilgan chat yoki elektron pochta orqali darhol aloqa qilish imkoniyati, bu qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

#### 5. Investorlar va mamlakat uchun qiymati:

- Shaffoflik va ma'lumotlarning qulayligi: Bunday xaritalar xalqaro va mahalliy investorlar uchun shaffoflik darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu esa investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy omil hisoblanadi.

- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: Foydalanish qulayligi va batafsil ma'lumotlar tufayli xarita Misrga ko'proq xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Bu O'zbekistonda ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan usul.


O'zbekiston uchun bunday xaritalarni yaratish nafaqat yangi investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi, balki mamlakatning shaffof va biznesga ochiq sharoitlarga ega ekanligi haqidagi imidjini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bunday vositalar orqali tadbirkorlar uchun qulay va jozibador sharoitlar yaratilishi, O'zbekistonda investitsiyalar uchun barqaror va ochiq muhit shakllanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy investitsiya imkoniyatlari interaktiv xaritasini yaratish biznes va investorlar uchun axborot yetkazish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. Bu ochiq ma'lumotlar platformasi bo'lib, unda huquqiy, iqtisodiy va boshqa ma'lumotlar geografik belgilar bo'yicha tizimlashtirilgan tarzda taqdim etiladi.

Mintaqaviy investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun turli manbalardan shakllanadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash zarur.

Mintaqaviy investitsiya imkoniyatlari interaktiv xaritasining amaliyotga joriy etilishi investitsiya jarayonlarining holatini monitoring qilish va baholash metodologiyasi va vositalarini takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, taqdim etish va tarqatish texnologiyalari (shu jumladan ochiq ma'lumotlar platformasidan foydalangan holda)ni takomillashtirish, statistik va boshqa sohalar bo'yicha ilmiy, uslubiy va statistika to'plamlari hamda boshqa axborot-tahliliy materiallar nashr etilishi uchun muhim bo'ladi (4-rasm).





#### 4-rasm. O'zbekiston Respublikasi investitsiya imkoniyatlarining xaritasi

*Manba:* mualliflar tomonidan tuzilgan

Bu xarita O'zbekistonning barcha viloyatlari va mintaqalarini qamrab olib, davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi va xorijiy investorlarga zarur ma'lumotlarni osonlik bilan taqdim etadi. Shu bilan birga, investorlar har bir mintaqada mavjud bo'lgan investitsiya imkoniyatlari, soliqlar, imtiyozlar, infratuzilma va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari haqida batafsil ma'lumot olishlari mumkin bo'ladi.

Bunday platformaning joriy etilishi O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini yanada shaffof va samarali qilishga yordam beradi, bu esa mamlakatga ko'proq xorijiy kapitalni jalb qilish imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun investitsiya siyosatini amalga oshirish jarayonida turli manbalardan yig'iladigan katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlash zarur. Tashqi bozorga muvaffaqiyatli kirib borish uchun korxonalar marketing va tahliliy ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish, qayta ishlash va yangilashni tizimli amalga oshirishi kerak. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining imkoniyatlari bu kabi murakkab ishlarni mustaqil ravishda, zarur professional darajada bajarish imkoniyatiga ega emas (tashqi bozorlar haqidagi ma'lumotlarning yetishmasligi, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash imkoniyatlarining yo'qligi, marketing tadqiqotlarining yetarlicha olib borilmasligi va boshqalar).

Interaktiv investitsiya imkoniyatlari xaritasini joriy etish, bu apparat, dasturiy ta'minot, axborot resurslari va metodikalar majmuasi sifatida qabul qilinadi, iqtisodiyotning eksport sohasida samarali qarorlar qabul qilishni asoslash uchun analitik ishlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Shu orqali eksportyorlar va investorlar faoliyatini axborot-marketing va maslahat yordami bilan ta'minlash, shuningdek, mahsulotlarini an'anaviy va yangi bozorlarga diversifikatsiya yo'li bilan chiqarishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha yagona va to'liq ma'lumotlar bazasini shakllantirish va eksportyorlar hamda investorlarni raqamli texnologiyalar asosida axborot-maslahat yordami bilan ta'minlash (o'zbek, rus va ingliz tillarida) maqsadida interaktiv investitsiya imkoniyatlari xaritasini loyihalashtirish quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Respublikaning turli iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlarni bozorlarga chiqarishni ilgari surish.

- Hududlarning investitsiya pasportlarini shakllantirish, ularda tabiiy-iqlim sharoitlari, geografik xususiyatlar, demografiya, ekologiya, transport-logistika va boshqa ma'lumotlar joylashtiriladi.

- Mintaqaviy va hududlararo axborot-marketing markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida shakllantirish.

- Bozorlar konyunkturasi, potensial investitsiya loyihalari va boshqa ma'lumotlar haqida tezkor va obyektiv ma'lumotlarni shakllantirish va taqdim etish orqali ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi axborot to'siqlarini bartaraf etish.

- Mahsulot yetkazib beruvchilar va iste'molchilar uchun bozorga chiqishning teng imkoniyatlarini ta'minlash, shuningdek, turli mamlakatlar (shu jumladan rivojlangan mamlakatlar) korxonalarini o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.

- Bozor konyunkturasi va bozor institutlari sharoitlarining o'zgarishi bo'yicha tovar ishlab chiqaruvchilar, investorlar, iste'molchilar va savdo ishtirokchilarini muntazam va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash.

- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, eksport, investitsiya va biznes-loyihalarga kirish uchun bilim va ko'nikmalar olish (onlayn kurslar, treninglar va boshqalar shaklida).

- Respublika va mintaqalararo marketing markazlari o'rtasida axborot almashinuvi va bozor ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash.

- O'zbek eksportyorlarini xorijiy bozorlar va potensial hamkorlar haqidagi ma'lumotlar bazalariga, shu jumladan Rossiya Federatsiyasining axborot-marketing tarmoqlariga kirishini ta'minlash.

- Hududlarning rahbarlari va mutaxassislarining ekspert-tahliliy va boshqaruv faoliyatini kompleks vositalar, axborot va dasturiy-texnologik yordam bilan ta'minlash (materiallarni tezkorlik va sifat jihatidan oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish).

- Eksport hujjat almashinuvini tashkil qilishning yagona talab va qoidalari asosida konsalting xizmatlarini rivojlantirish (shu jumladan texnik talablarni hisobga olgan holda: sertifikatlash, qadoqlash, kalibrovka, transport va boshqalar).

- Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning turli bosqichlarida to'liq yordam ko'rsatish bo'yicha konsalting xizmatlarini rivojlantirish (yagona oyna prinsipi bo'yicha): biznes-rejalar tayyorlash, texnik-iqtisodiy asoslash va investitsiya memorandumlari tuzishdan tortib, loyihaning amalga oshirilishining real natijalarini baholashgacha (shu jumladan onlayn maslahatlar).

- Hududiy ijro hokimiyati organlarini investitsiya jalb qilish bo'yicha zarur kompetensiyalar va muvaffaqiyatli loyihalarni birgalikda amalga oshirish tajribasiga ega bo'lgan loyiha jamoalari bilan ta'minlash.

- Xalqaro savdo samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali yuqori axborot va marketing texnologiyalarini tatbiq etish.

Bu interaktiv xarita platformasi O'zbekiston iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga va investitsiya muhitini yaxshilashga yordam beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Investitsion jarayonlarda interaktiv geoaxborot xaritalarini yaratish xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilib, investitsion muhitni yaxshilashga va resurslarni samarali taqsimlashga yordam bermoqda. Misrning sanoat investitsiyalari xaritasi bu borada eng yaxshi namunalardan biri hisoblanadi. Ushbu interaktiv xarita potensial sarmoyadorlar uchun ko'p ma'lumot beradi: sanoat zonalari, mavjud infratuzilmalar, energiya manbalari, mehnat resurslari va boshqa muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida taqdim etiladi. Bu jarayon investitsiya qarorlarini qabul qilishda samaradorlikni oshiradi, investorlarga raqobatbardosh hududlarni aniqlash imkonini beradi.

Misrning investitsiya xaritasi nafaqat sarmoyalarni jalb qilish, balki mintaqaviy rivojlanishni muvofiqlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu usul orqali sarmoyadorlar uchun aniq ma'lumotlar olish imkoniyati yaratiladi, bu esa resurslarni oqilona taqsimlashga, sanoatni geografik diversifikatsiyalashga va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. Interaktiv geoaxborot xaritalaridan foydalanish orqali Misr nafaqat yirik investitsiya loyihalarini amalga oshiradi, balki kichik va o'rta bizneslarni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Xorijiy tajribaga asoslanib, O'zbekiston ham o'z investitsiya jarayonlarida shunday innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishi mumkin. Hududlar bo'yicha sanoat rivoji, infratuzilma va boshqa ko'rsatkichlarni raqamli xaritalarda aks ettirish, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi. Shu bilan birga, investorlar uchun ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligi ta'minlanib, ularni O'zbekistonga sarmoya kiritishga rag'batlantiradi.

### **Adabiyotlar:**

*Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yilda 14-yanvar oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16-sonli qarori*

*Jesse, Hampton., Andrew, Higgins., Akshay, Krishnaswamy., Aaron, Rubin., Frank, Chen. (2018). 2. Interactive geospatial map and geospatial visualization systems.*

*Glen, Takahashi., Robert, Imig. (2018). 3. Interactive geographical map.*

*Kukhar M.V., Olena, Pomortseva., Sergiy, Kobzan., O.V., Dobrokhodova. (2022). 1. Geoinformation systems based on cartographic and geodesic surveys for planning investment processes in cities. doi: 10.33042/2522-1809-2022-3-170-228-233.*

*Budi, Sunaryo., Joni, Sukma, Wardana., Reihan, Hanafi, Wiyanatra., Arnita, Arnita., Riska, Ayu, Amelia., Zonna, Eva, Karmila. (2022). Rancang Bangun Sistem Informasi Potensi dan Peluang Investasi Berbasis WebGIS. Bulletin of Computer Science Research, doi: 10.47065/bulletincsr.v3i1.209.*

*Maksym, Lupei., Myroslav, Shlahta., Oleksandr, Mitsa., Yurii, V., Horoshko., H., Tsybko., Vasyi, Gorbachuk. (2022). Development of an Interactive Map Within the Implementation of Actual State and Public Directions. doi: 10.1109/ACIT54803.2022.9913191.*

*Cezary, Stepaniak. (2015). Interactive maps as a tool of investment processes support. Collegium of Economic Analysis Annals.*